

XALQ TABOVATI RIVOJIDA ABU ALI IBN SINO ILMIY MEROSINING O'RNI

O'ralova N.U.

Jizzax DPU Tabiiy fanlar fakulteti

Zoologiya va anatomiya kafedrası o'qituvchisi

Rezyume; Ushbu maqolada Ibn Sinoning jahon madaniyati yutuqlari ta'sirida shakllangan ilmiy merosi, uning tibbiyot sohasidagi asarlari va asarlarining jahon tibbiyotini takomillashtirishga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Резюме. В данной статье размышляется научное наследие Ибн Сины, сформировавшееся под влиянием мировых культурных достижений, а также влияние его трудов и трудов в области медицины на совершенствование мировой медицины.

Resume. This article reflects on Ibn Sina's scientific heritage, which was formed under the influence of world cultural achievements, and the influence of his works and works in the field of medicine on the improvement of world medicine.

Qadim qadimdan O'rta Osiyo xalqlari asrlar davomida boy o'ziga xos madaniyatni yaratdilar. Bu madaniyatni G'arbiy Sibir, Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Eron, Hindiston, Janubi-G'arbiy Osiyo aholisi madaniyatining o'zaro ta'siri natijasi sifatida baholash mumkin. Mazkur uyg'unlashuvi oqibatida mintaqada o'ziga xos va betakror madaniyat qaror topgan.

Mazkur noyob hodisa Ibn Sinoning ilmiy merosida yaqqol ko'rinadi. Ibn Sino ilg'or tafakkur namoyandasi sifatida ilmiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlovchi va tezlashtiradigan falsafiy tizimga intildi. Ibn Sinoning nazariy merosini bir butun sifatida baholashda undagi diniy tushunchalar hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Ibn Sino ilmiy merosida bizni, birinchi navbatda, u islomning idealistik an'analari yukini qay darajada yengib, rasmiy din va ilohiyotning majburiy ko'rsatmalaridan chetga chiqib, ilmiy dunyoqarashning kelajakdagi muvaffaqiyatiga yo'l ochganligi qiziqtiradi. o'yladi. Ibn Sinoning dunyoqarashiga ham ana shu pozitsiyalardan kelib chiqib qarash kerak.

Ibn Sino tabiatshunoslik asarlarida faktlarni aniq kuzatishni talab qiladi. Ibn Sino tajribalar paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolar ehtimolini ko'rsatadi. Tajribani amaliyot mezoni sifatida Ibn Sino ataylab qo'llaydi, u ilmiy tajribalarning tabiatdagi tabiiy jarayonlarning borishiga mos kelishini talab qiladi.

Ibn Sino tajribani amaliyot mezoni sifatida qo'llasi natijasida Sharqda ham, G'arbda ham eng mashhur asari "Tib qonunlari" asari yuzaga keldi. Mazkur asar birinchi marta 1433 yilda Venetsiyada nashr etilgan fundamental asaridir. "Tib qonunlari" yaxshi rivojlangan anatomiya, fiziologiya, diagnostika, terapiya, jarrohlik, farmakologiya va profilaktikani o'z ichiga oladi. "Tib qonunlari"da kasallikning sabablari va belgilari haqidagi ma'lumotlar tizimli tarzda bayon etilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Ibn Sino kasalliklarning kelib chiqish sabablari va o'lim sabablari haqida o'zining dastlabki izohlarini berar ekan, birinchi navbatda, inson tanasini chuqur

o'rganishga tayangan. O'rta asrlar sharoitida, din tibbiyotga inson tanasining tuzilishini o'rganishni taqiqlagan paytda, Ibn Sino yashirincha anatomiya bilan shug'ullanadi. Uning jonli kuzatuvchan ongi inson ruhiyatini o'rganishga intildi. U aqliy va jismoniy jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik g'oyasini ifodalab, tibbiyot fani nafaqat anatomiya va terapiya bilimlariga, balki aqliy qobiliyatlarning tabiatini bilishga ham asoslanishi kerakligini ta'kidlaydi. Ibn Sino miya va nervlarning muhim rolini ta'kidlaydi. Ibn Sino dam olish, profilaktika, gimnastika, iqlim va sayohatning inson salomatligiga ta'siriga alohida e'tibor beradi. Xarakterli jihati shundaki, Ibn-Sino yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilari kashf etilishidan ancha oldin ba'zi kasallik qo'zg'atuvchi moddalarning havo va suv orqali tarqalishi g'oyasini bildirgan.

Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida hayratlanarli mantiq va izchillik kuchi bilan antik davr tabiblari va Yaqin Sharq xalqlari tomonidan to'plangan boy va qimmatli materiallarni umumlashtiradi va o'rta asrlarda shakllanayotgan tibbiyot fanini larzaga keltiradigan shunday nazariy xulosalarga keladi. Uning tajribani amaliyot mezoni sifatida qo'llasi "Tib qonunlari"ning asosiy afzalligidan biri hisoblanadi. Ibn Sinoning bu asari uning aniq ilmiy bilimga, hayot jarayonlarini davr imkoni boricha aniq ratsionalistik tushuntirishga intilishidan ishonchli dalolat beradi. Har qanday bilim, deydi Ibn-Sino, sabablar ma'lum bo'lmaguncha, orttirilmaydi va tugallanmaydi. Shuning uchun tibbiyot sohasida salomatlik va kasallikning sabablarini bilishga intilish tabiiydir. Salomatlik va kasallik, shuningdek, ularning sabablari ba'zan aniq, ba'zan yashirin va tushunish bilan emas, balki dalillar bilan ma'lum bo'lganligi sababli, biz sog'lik va kasallikka tegishli bu faktlarni o'rganishimiz kerak.

Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida inson organizmiga o'simliklarning tasirlari va shifobaxshlik xususiyatlari haqida ma'lumotlar mavjud. Misol uchun biz ko'pincha e'tibor bermaydigan ariq bo'ylarida va bog'larda o'sadigan Zubtutumning (*Plantago major* L) dorivorlik xususiyatlari haqida ham mazkur asarda ma'lumotlar mavjud. Zubtutumning bir necha turlari bo'lib ular quyidagilar Katta zubtutum yil bo'yi yo'l yoqalarida, dalalarda, ekinzorlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, ariq bo'ylarida hamda boshqa namligi yuqori yerlarda o'sadi. Bu o'simlikning bargidan dori sifatida foydalaniladi.

O'rta zubtutum, lansetsimon zubtutum kabi turlari ham yil bo'yi o'sadi hamda ularni uchrash geografiyasi ham keng. Ular katta zubtutum bilan bir xil bo'lib bu turlar ham yo'l yoqalarida, dalalarda, ekinzorlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, ariq bo'ylarida hamda boshqa namligi yuqori yerlarda o'sadi. Bu o'simliklarning ham barg qismidan dori darmon tayyorlashda foydalaniladi. Xususan Lansetsimon zubtutum Abu Ali ibn Sino yozib qoldirgan "Tib qonunlari" kitobida qon tomirlarini mustahkamlashi, ayrim bitishi qiyin bo'lgan yaralarni oson bitirishi, hatto oshqozon va ichaklarning ham ba'zi kasalliklarida shifo bo'lishligini ta'kidlab o'tgan.

Shuningek, mazkur asarda jag'-jag' (achambiti) o'simligi va uning shifobaxshlik xususiyati haqida ham ma'lumotlarga duch kelish mumkin. Ma'lumki, jag'-jag' (achambiti) o'simligi – *Capsella bursa pastoris* Medic, karamdoshlar - Brassicaceae (butguldoshlar - Craciferae) oilasiga kiradi. Bir yillik, bo'yi 20-30 sm (ba'zan 60 sm)ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi bitta, ba'zan bir nechta, tik o'suvchi, shoxlangan yoki

shoxlanmagan. Ildizoldi barglari bandli, cho'ziq lansetsimon, turlicha qirqilgan barg plastinkasiga ega. Poyadagi barglari mayda, gullari shingilga to'plangan. Mevasi - qo'zoqcha. Aprel oyidan boshlab kuzgacha gullaydi, mevasi iyundan boshlab yetiladi. Geografik tarqalishi. Uzoq Shimol va cho'l tumanlaridan tashqari barcha aholi yashaydigan yerlarda, yo'l yoqalarida, o'tloqlarda va begona o't sifatida ekinlar orasida o'sadi. Mahsulot tayyorlash uchun o'simlik gullashi va mevasi yetilishi davrida ildizi bilan sug'urib olinadi. Ildizini ba'zan ildizoldi barglari bilan tashlab yuborib, qolgan qismini soya joyda quritiladi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot poya, barg, gul va xom meva aralashmalaridan iborat. Poyasi siyrak bargli, shoxlanmagan yoki shoxlangan, qirrali, tuksiz yoki tuklar bilan qoplangan, uzunligi 20-50 sm bo'ladi. Ildizoldi barglari (agar mahsulotda bo'lsa) cho'ziq lansetsimon, band tomoniga qarab torayib boruvchi, kemptik tishsimon qirrali yoki patsimon kesik, ba'zan tekis qirrali bo'ladi. Poyasidagi barglari mayda, lansetsimon, tekis qirrali bo'lib, bandsiz, ketmaket o'rnashgan. Gullari oqimtir rangli, shingilga to'plangan. Kosacha va tojbarglari 4 tadan, otaligi 6 ta, shundan 2 tasi kalta, onalik tuguni 2 xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi teskari uchburchak yoki teskari uchburchak - yuraksimon qo'zoqcha. Mevasining uzunligi 5-8 mm, eni 4-5 mm. Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida gissopin glikozidi, 0,12 % askorbin kislota, vitamin K1, organik kislotalar, xolin, asetilxolin, inozit, flavonoidlar, saponinlar, oshlovchi hamda boshqa birikmalar bo'ladi. "Tib qonunlari"da yozilishcha, jag'-jag' o'simligining preparatlari tug'gandan keyin va bachadon kasalliklarida qon oqishini to'xtatish uchun hamda bachadon zaiflashganda uni tonuslovchi vosita sifatida ishlatiladi. Dorivor preparatlari damlama, suyuq ekstrakt shaklida tayyorlanadi. Jag'-jag' - xalq tabobatida qadim qadimdan ishlatilib kelingan o'simliklardan biri hisoblanadi. Bu o'simlikdan tayyorlangan damlamalardan asosan turli xildagi qon oqishlarda (bachadondan, o'pkadan, oshqozondan, ichakdan, buyrakdan hamda turli xil yaralardan qon ketishlarida) samarali dori sifatida foydalanilgan. Ayniqsa qon aralash siydik yo'li kasalliklarida hamda qon aralash ich ketishlarda ham foydalangan. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Abu Ali ibn Sinoning tibbiy o'gitlaridan ilmiy merosidan foydalanish xalq tabobatining qolaversa tibbiyotning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.